

Janbayeva Marjan Smatillayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti o‘qituvchisi

janbaeva.m@cspi.uz

G‘oyibova Ro‘zixol Bozar qizi

Qodirova Munira Shuxrat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti 1-kurs talabalari

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etish ahamiyati va shakllantirish usullari o‘rganilgan. Pedagogikaga oid bilimlarni puxta o‘zlashtirish asosida o‘rganiladigan ko‘nikma, malakalarini o‘z ichiga oladi. Kreativ pedagogikaning eng muhim nazariy g‘oyalari, asosiy kategoriyalari, tushunchalari va asosiy pedagogik faktlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, kreativ sifatlar, kreativ tafakkur, prognoz, kontsentratsiya, analistik tahlil, analiz va sintez.

Kreativlik atamasi - Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. Kreativlikning mohiyati intellektual insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatini maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlays olish qobiliyati hisoblanadi.

Pedagogning kreativligi esa talim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashuviga aytiladi. Kreativ tafakkur jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichlarini ta’minlash uchun xizmat qiladigan noananaviy fikrlash qobiliyati va taraqqiyot omillarini ta’minlashga yo‘naltirilgan tafakkur hisoblanadi. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Kreativ tafakkur: inson ma’naviyati, tarbiyasi, bilimi, intellekti, iqtidori kabilarni ishlata olish qobiliyatini o‘z ichiga qamrab oladi. Demak, har bir fan o‘qituvchisi o‘quvchilarda mana shu xislatni pedagogik diagnostik metodlari orqali aniqlagan holda, uni shakllantirish va rivojlantirishi zarur. Buning uchun bo‘lajak pedagoglarni ong, tafakkur va aqlning peshqadamligi, tafakkurning noananaviyligi ,oldindan bashoratlay olish, ya’ni prognoz qila olish kabi xususiyatlarni pedagogik jarayonda maqsadli shakllantirishi kerak. Har qanday muammoning yechimi bo‘yicha bir emas bir nechta yechimlarni ko‘rsata olish, hamda ularning barchasini o‘ziga xos ijobjiy va salbiy tomonlarini har tomonlama asoslab berish, ko‘pchilik o‘ylab ko‘rmaydigan masalaning boshqa jihatlarini ham ochib berish kabi aql peshqadamligiga ega bo‘lish, zamonaviy taraqqiyot uchun yangi yo‘nalishlar va yo‘llarni ko‘ra bilish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, faoliyatni yangilash, faoliyatdagi

masalalar yechimini yangi yo‘nalishlarini topa bilish kabi noananaviy tafakkurga ega bo‘lishdir.

Pedagoglar kreativ faoliyatini tashkil etish va shakllantirish uchun bir nechta yaxshi usullar mavjud. Bu, talabalar va o‘quvchilarga yangi va o‘rganishga oid mulohazalarni yaratishga imkon beradi va ularning ilmga bo‘gan intilishini oshiradi. Quyidagi qadamlar kreativ faoliyatni tashkil etish va shakllantirishda yordam berishi mumkin:

1. Maqsadlarni belgilash: kreativ faoliyatni tashkil etish uchun, muvaffaqiyatli natijalar olish uchun maqsadlar belgilanishi zarurdir. Bu maqsadlar o‘quvchilarning ma’lumot va ko‘nikmalarini rivojlantirish, muammolar yechish va yangi yechimlar qidirishga yordam berishga yo‘naltirilishi mumkin.

2. O‘quvchilarning ko‘nikmalarini oshirish: o‘quvchilar kreativ fikrlashni o‘rganish va rivojlantirish uchun masalalar ustida ishlash, muammolar yechish, takliflar berish va o‘quvchilarning o‘z fikrlarini ifoda qilish uchun imkoniyatlar yaratish lozim.

3. Muhitni ta’minlash: kreativ faoliyatni oshirish uchun ilg‘or muhitlar yaratish muhimdir. Bu muhit o‘quvchilarning fikrlarini qabul qilish, ularni o‘rganish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

4. Ta’lim usullarini birlashtirish: muhitni kreativ faoliyat uchun ishlatish uchun har xil ta’lim usullari va uslublari birlashtirilishi kerak. Masalan, guruh bilan ishlash, interaktiv, individuallik va o‘zaro fikrlashish kabi usullar ishlatilishi mumkin

5. Ko‘nikma va innovatsiyalarini qo’llash: pedagoglar o‘quvchilarning fikrlarini, takliflarini va innovatsiyalarini(yangiliklarini) qo’llab-quvvatlash uchun o‘zgartirilgan usullar va vositalar ishlatishlari kerak. Bu, ularning o‘z fikrlarini ifoda qilish va ularni amalga oshirishlari uchun g‘oyalarini hayotdaa qo’llay olishlariga imkon beradi.

6. Tez-tez baho berish va qarshilik: kreativ faoliyatni tashkil etish va shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning o‘zlarini boshqarish, ularning faol ishtirokini rag‘batlantirish va ularning yaratuvchi potentsialini yuksaltirish uchun tez-tez baho berish va qarshilik muhimdir.

7. Mazmunni tashqi ma’lumotlar bilan bog’lash: kreativ faoliyat o‘quvchilarning joriy tajribalariga asoslanishi kerak. Bu, o‘quvchilarning qiziqishlariga mos, maqsadlarga yo‘naltirilgan o‘quv matnlarini va tajribalarni qo’llash orqali amalga oshirilishi mumkin.

8. Insonparvarlik va ta’sir: o‘quvchilarni shaxs sifatida tan olish, ularni tinglash, qiziqishlarini, fikrlarini inobatga olgan holda ta’sir o‘tkazish va ularning o‘zlarini qo’llab-quvvatlash uchun masalalar, muammolar va tushunchalarni muhokama qilish uchun imkoniyatlar yaratish muhimdir.

Bu usullar kreativ faoliyatni tashkil etish va shakllantirish jarayonida o‘quvchilarni qiziqtirish va ularga o‘rganish muhitini taqdim etishga yordam beradi. Bu

esa ularning fikrini rivojlantirish va yangi yechimlarni qidirish hamda topishga olib keladi.

Kontsentratsiya jarayoni ma'lum bir muammo atrofida aqliy salohiyatning mujassamlashuvi, ma'lum faktlar, ularning tizimi, tahlili olib boriladi. Ong faolligining ba'zan ko'tarilishi yoki pasayishi, insonning muammo tahliliga berilishi, natijada turli yangi nostandard g'oyalarning tug'ilish va shakllanish jarayonidir. Talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdan oldin sinfda qulay muhitni yaratish lozim, buning uchun albatta analitik-tahlil qilinadi.

Analitik tahlil jarayoni bu tayyorgarlik jarayoni bo'lib, u axborotlarni yig'ish va tahlil qilish, mavjud ahvol tahlili, axborotlarni umumlashtirish, ko'rsatkichlarni taqqoslash jarayoni hisoblanadi. G'oyalar inkubatsiyasi jarayoni aqliy kontsentratsiya jarayonida yuzaga kelgan barcha mavjud g'oyalar ong ostiga o'tib, ular mudroq holga keltiriladi. Tafakkur qilish jarayonida ular metodologik asoslarda qayta tahlildan o'tkaziladi va guruhanadi. Shaxsiy senzura yangi g'oyalarning barchasini axloqiy – ma'naviy va qadriyatlar nuqtai nazarida nazorat qiladi, so'ng mazkur g'oyalar pishib yetilgan tayyor tarzda inson psixikasiga o'tkaziladi. G'oyalar tahlilini amalga oshirishda, g'oyalar qidirishda, to'lqinli taraqqiyot jarayoni sodir bo'ladi. Inson tafakkurida bazi o'zgarishlar yangilanadi, bunda inson tafakkuri o'zini tinch va osuda tutmaydi, balki u turli keskin harakatlarga moyil bo'ladi. Bu vaqtida odam bir mavzudan birdaniga boshqa mavzuga o'tib ketishi, ba'zi harakatlarni bajarishi mumkin bo'ladi. Bu inson tafakkurida kechayotgan ong oqimlarining faoliyati hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning natijasida – so'nggi qaror pishib yetiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, kreativ jihatdan rivojlanishga har bir shaxs hayotida davr va bosqich muhim ahamiyat kasb etadi, kreativ tafakkurga ega talabalar boshqa talabalarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi, o'zlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi, kreativ pedagoglar zamonaviy pedagogik muammolarni aniqlash, dolzarbligini asoslash va ularni tahlil qilish qobiliyatiga egadirlar.

ADABIYOTLAR:

13. Ernazarova, G. O., Qaynarova, I. V. (2021). Zamonaviy dasturlashtirilgan o'qitishni qo'llash. *Zamonaviy ta'lim va tarbiya*, 1(1), 75-81.
14. Qorayev, S. B., & Janbayeva, M. S. (2021). Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy tamoyillari. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1492-1496.
15. Janbayeva, M. S., & Qorayev, S. B. (2021). Modern principles of organization of extracurricular activities in primary schools. *Экономика и социум*, (5-2), 837-843.

16. Smatillaryevna, J. M., Hilola, R., & Mannona, M. (2023). Organization and management of the education process at the school based on the cluster approach. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 20(8), 66-68.
17. Qorayev, S. B., & Janbayeva, M. S. (2022). Boshlang'ich ta'limganda o'qish darslarida interfaol metodlarni samarali qo'llashning o'ziga hos jixatlari. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 1079-1085.
18. Janbayeva, M. S., & Qorayev, S. B. (2021). Boshlangich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy tamoyillari. *Экономика и социум*, (5-2 (84)), 837-843.
19. Oblaqulovna, E. G., Zarifamukaddamovna, K., & Valievna, Q. I. (2021). The importance of developing innovative methods in the educational system. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(05), 833-838.
20. Ernazarova, G. O., Mukaddamovna, K. Z., Valievna, Q. I., & Bolatbekovich, K. A. (2022). The Need To Study Pedagogical Professional Thinking. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 5, 95-98.
21. Smatillaryevna, J. M., & Serkebayevna, T. L. (2023). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o 'zin texnologialaridan foydalanishning ahamiyati. *journal of science, research and teaching*, 2(12), 105-108.
22. Smatillaryevna, J. M. (2023). Sport menejerining boshqaruvchanlik qobiliyatini rivojlantirish. *journal of science, research and teaching*, 2(12), 102-104.
23. Smatillaryevna, J. M. (2023). Ta'lim jarayonida ijodkor va novator o 'qituvchilarning o 'rni. *o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(24), 156-159.